

Опубликовано на Aloqabank.uz (<http://aloqabank.uz>)

# Kreditlash

## Iste'mol krediti

AT «Aloqabank» jismoniy shaxslarga quyidagi maqsadlarda iste'mol kreditlarni taklif qiladi:

- turli xil maishiy texnika, orgtexnika, mebel, interyer predmetlarni va boshqalarni sotib olishda;
- kompyuter texnikasini va mobil telefonlarni harid qilishda;
- oliy o'quv yurtlarda ta'lim olish uchun to`lovlarini amalga oshirishda;
- tibbiyot va sanitar-sog`lomlashtirish muassasalar xizmati haqqini to`lashda;
- uy-joylarini ta'mirlash uchun qurilish mollarni sotib olishda;
- to`y va an'anaviy tadbirlarni o`tkazishda;
- aviabiletlarni sotib olishda;

Iste'mol kredit - bu jismoniy shaxsning iste'mol ehtiyojlarini qondirish maqsadida tovarlar va xizmatlarni harid qilish uchun taqdim etiladigan kredit.

Kerakli hujjatlar:

- kredit miqdori, muddati, foydalanish maqsadi va taklif qilinayotgan kredit ta'minoti bayon qilingan qarz oluvchi tomonidan imzolangan **ariza**;
- qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchi, jismoniy shaxs bo'lgan kafil) ning **pasport nusxasi**;
- qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchi, jismoniy shaxs bo'lgan kafil) ning ish joyidan oxirgi 1 yillik **ish haqi to'g'risida ma'lumotnomasi** (ushbu ma'lumotnomada lavozim, STIR va jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i raqami ko'rsatilishi lozim);
- **kredit ta'minoti** bilan bog'liq hujjatlar;

Iste'mol krediti asosiy shartlari

Davolanish uchun:

- Yillik foizi – 18%;
- Muddati – 1-3 yilgacha;

To'y marosimlari o'tkazish va O'quv kurslari xizmati uchun:

- Yillik foizi – 20%;
- Muddati – 1-3 yilgacha;

Safarbarlik chaqiruv rezervi uchun:

- Yillik foizi – 22%;
- Muddati – 2 yilgacha;

Maishiy texnika vositalari, mebel jihozlari, qurilish mollari va boshqa maqsadlar uchun

- Yillik foizi – 24%;

- Muddati – 1-3 yilgacha;

Mahalliy va chet el sayohati uchun:

- Yillik foizi – 20-24%;
- Muddati – 1-3 yilgacha;